

XOTIRA VA UNING MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA O'ZIGA ZOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19191481>

Jalolova Mohigul Odiljon qizi

*Qo'qon Universiteti Andijon filiali dotsent v.b.,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda xotira jarayonlarining rivojlanishi tahlil qilingan. Ixtiyorsiz va ixtiyoriy esda olib qolishning yoshga qarab shakllanishi Farg'ona shahridagi 33-sonli MTTda o'tkazilgan tadqiqotlar asosida o'rganilgan. 4, 5 va 6 yoshli bolalarda Ribalko va Golovey metodikalari qo'llanilib, xotiraning o'sish dinamikasi aniqlangan. Natijalar ixtiyorsiz xotira dastlab ustun bo'lsa, 5 yoshdan boshlab ixtiyoriy xotira faol rivojlana boshlashini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: *xotira, ixtiyorsiz esda olib qolish, ixtiyoriy esda olib qolish, maktabgacha yosh, bola psixologiyasi, latent davr, idrok, obrazli xotira, mexanik xotira, esga tushirish jarayoni, psixik rivojlanish.*

ПАМЯТЬ И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ.

Аннотация

В данной статье анализируется развитие процессов памяти у детей дошкольного возраста. Возрастное формирование непроизвольного и произвольного запоминания изучалось на основе исследований, проведенных в ДОУ No 33 города Ферганы. У детей 4, 5 и 6 лет применяли методики Рыбалко и Головея и определяли динамику роста памяти. Результаты показали, что если изначально преобладает непроизвольная память, то с 5 лет начинает активно развиваться произвольная память.

Ключевые слова: *память, непроизвольное запоминание, произвольное запоминание, дошкольный возраст, детская психология, латентный период, восприятие, образная память, механическая память, процесс воспроизведения, психическое развитие.*

MEMORY AND ITS SPECIFIC FEATURES DURING PRESCHOOL AGE.

Annotation

This article analyzes the development of memory processes in preschool children. The age-related formation of involuntary and voluntary memorization was studied based on research conducted in Preschool Educational Institution No. 33 of the city of Fergana. In children aged 4, 5, and 6, the Rybalko and Golovey methods were used to determine the dynamics of memory development. The results showed that if involuntary memory initially prevails, then from the age of 5 voluntary memory begins to actively develop.

Keywords: *memory, involuntary memorization, voluntary memorization, preschool age, child psychology, latent period, perception, figurative memory, mechanical memory, recall process, psychological development.*

Xotira jarayonlarini o'rganish bo'yicha psixologiya fani sohasida bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Xotira va uning jarayonlari olamni bilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bola olamni bilishda olgan ma'lumotlari ular uchun yangi-yangi ochilishlar bo'lib hisoblanadi. Idrok etilgan ma'lumotlar uning miyyasida saqlanib qoladi, keyingi ma'lumotlarni idrok etishda avval o'zlashtirilgan va ongida saralangan ma'lumotlarga tayanadi.

Maktabgacha yosh davrida shaxs aqliy holatida muhim o'rin tutadi. Bolaning aqliy kamolotida xotiraning o'zni o'ziga xos. Boshqa psixik jarayonlar kabi bola xotirasi ham yosh xususiyatiga ega bo'lib, bolaning yoshi ortishi bilan taraqqiy etib boradi. Bolaning ta'lim tarbiyasida uning xotirasiga xos xususiyatlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda maktabgacha yosh davrida bola xotirasiga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tsak.

Bola uch-to'rt xaftalik bo'lganidayoq unda harakat xotirasining dastlabki ko'rinishlari paydo bo'ladi. Birinchi shartli refleksning vujudga kelishi ana shu paytdan dalolat beradi agar bolani emizgan vaqtdagidek qilib qo'lga olinsa, u ham ishonib, emishga harakat qiladi. Bola harakatining o'sa borishi bilan uning harakat xotirasi ham o'sadi. Uch-to'rt oylik bolada yaqqol obrazli xotira paydo bo'lganligini ko'ramiz. U o'ziga eng tanish bo'lgan narsalarni eslab qoladi va taniydi, onasini taniydi, onasini ko'rganida, unga jilmayib qo'l uzatadi. Asta-sekin bola o'ziga yaqin bo'lgan boshqa kishilarni ham taniy boshlaydi, «o'ziga yaqin kishilarni» «begonalar» dan farq qiladi. Olti oylik bolani onasidan boshqa bir xotin emizmoqchi bo'lsa, bola emmaydi. Bu vaqtda bola o'ziga sut beriladigan butilkani taniydi, uni boshqa butilkadan, masalan, dori shishasidan farq qiladi. Bola dori shishasini ko'rganida undan yuz o'giradi.

Kattalarning aytgan so'zlarini tushunish bolada xotiraning o'sib borayotganligini ko'rsatadi. Olti-yetti oylik bola oti aytilgan narsani biladi va uni ko'rsatib beradi.

Bola bir yoshga to'lganida unda esda saqlab qolishning dastlabki belgilari paydo bo'ladi. U oti aytilgan narsani ko'zi bilan qidiradi va agar topolmasa, bezovta bo'la boshlaydi, achchiqlanadi. Bu hol bolada idrok qilingan narsalar to'g'risida tasavvurlar paydo bo'lganligi va bu tasavvurlar saqlanib qolayotganligini ko'rsatadi. Latent (yashirin) davr deb atalgan davr, ya'ni bola narsani idrok qilganidan tortib to shu narsani taniydigan holga kelgunicha o'tgan vaqt xotiraning qanchalik tez o'sganligini bildiradi.

Ilk yoshda xotira jarayonlari tez o'sib, takomillashadi. Maktabgacha yoshidagi bolaning xotirasi go'daknikida bo'lgani singari ixtiyorsiz xotiradir. Bola materialni hali ataylab, ongli ravishda esda saqlab qololmaydi va esiga tushirolmaydi. Ammo bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolaning xotira protseslarida go'dakning xotirasiga nisbatan anchagina oldinga siljish seziladi. Bu so'z avvalo esga tushirish, tanish jarayoniga taalluqlidir.

Hayot kechirish yo'sinining o'zgarishi, tajribaning ko'payishi, qurshab olgan dunyodagi tobora ko'p narsalar bilan tanishish natijasida bolaning taassurotlari tobora turli-tuman bo'lib qoladi. Bola ko'p narsalarni esda saqlab qoladi va ularni keyinchalik taniydi. Ikki yoshga qadam qo'ygandayoq bola ilgari ko'rgan narsalarini suratdan taniy olishini yuqorida aytgan edik. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bola ota-onasini va yaqinlarini suratidan taniydi, ko'pincha otini ham aytib beradi. N.M.Menchinskayaning yozishicha, o'g'il (1 yashar-u 7 oylik) hovli darvozasini tanib olgan, onasi darvozaga kirmay o'tib ketayotganda hovlimizga kiramiz, deb talab qilgan. Bosh miya, ayniqsa po'stining yanada taraqqiy qilishi, nerv tolalarining mielin pardasi bilan tez qoplanish jarayoni bilishning latent (yashirin) davrini uzaytiradi[4].

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Go'dakda latent davri taxminan uch hafta bo'lsa, bir yoshdan oshganda bu davr uzayib 9 xaftagacha; ikki yoshdan oshganda esa bir necha oyga yetadi. Ayni vaqtda bolalardagi latent davrining uzunligi har qaysi bolada har xil bo'lishi mumkin[1].

Latent davrining tezroq uzayish hodisalari uchrab turadi. Masalan, N.Sibirlevarning hikoya qilishicha, 1 yashar-u 3 oylik qizi uyida ikki oycha bo'lmay, qaytib kelganida o'z uyi va undagi narsalarni tanigan, Otasining xonasiga kirganda uning o'rin-boshiga qo'llarini urib, «ad-da, ad-da» deya chug'illagan.

Ilk yoshdagi bolada dastlabki xotiralar paydo bo'ladi, ular tobora tarkib topa borib, bolaning nutqida mustahkam o'rinish qoladi. Endi bola o'zi boshidan kechirgan eski voqealarni ko'pincha esga tushiradi va hikoya qilib beradi. Shu bilan birga, ilk yoshdagi bolaning xotiralari hali takomillashmagan bo'ladi. Tajribasi cheklanganligi, tevarak-atrofdagi hayot faktlari va hodisalarini yetarlicha to'liq tushunib, bir-biriga bog'lay bilmasligi sababli, bu yoshdagi bolaning xotiralari uzoq - yuluq, sistemasiz bo'ladi[1].

Bola nerv sistemasining yuksak darajada plastik, muloyim, o'zgaruvchan bo'lishi tufayli uning mexanik xotirasi juda o'sgan bo'ladi. Yondoshlik assotsiatsiyasi juda tez xosil bo'ladi. Bola bir necha marta takrorlagandan keyin so'zlarni bemalol esda tutib qoladi, bog'chagacha tarbiya yoshining oxiriga kelib, kichik she'rlarni ham yodlab oladi.

Bu xususiyat ikki yoshdan oshgan bolalar uchun xarakterli bo'lib, ularning xotirasi uzuk-yuluq ekanligini ravshan ko'rsatadi. Bola butun bir satrdan ko'proq taassurot qoldiradigan ayrim so'zlarnigina o'zlashtiradi va egasiga tushtiradi.

Bola sekin-asta narsalarni tobora butun esda qoldira boshlaydi. Bola avvalgidek, satrdagi faqat bir so'zni esga tushiradi-yu, shu so'zning butun bir jumladagi urinish to'g'ri aniqlay oladi. Agar katta yoshli kishi satrni aytib bera boshlasa, bola bilib olgan so'zini zarur joyga qo'yib, fikrga tushunib, satrni bemalol tamomlaydi. Bola birgina so'zni aytib berayotgan bo'lsa, endi butun bir jumlaning, butun bir fikrni bolib olayotganligi shundan ko'rinib turibdi. Bu bola xotirasimiig o'sishidagi katta bir siljishdir.

Nihoyat, uch yoshga to'lish oldidan bola butun-butun jummalarni aytadigan va kichik-kichik to'rt satrli she'rlarni aytib bera oladigan bo'ladi. Ayni vaqtda mexanik xotira kuchli bo'lganidan she'rlar ancha yaxshi esda qoladi.

Ilk yoshdagi bolada mexanik xotira kuchi bola ko'pincha so'zlarning ma'nosini tushunmasdan yodlayverishida ham ko'rinadi. Lekin bolaning mexanik xotirasi kuchli degan so'zdan, ba'zi psixologlar ta'kidlaganlaridek, u go'yo faqat mexanik ravishda eslab qolar ekan, degan ma'no chiqarmaslik kerak, albatta[5].

Bola tili chiqa boshlagach, aloqa jarayonida nutqdan foydalanadi, til logikasini o'zlashtiradi, so'z-ma'no xotirasi shu paytda xosil bo'lib, tez o'sa boradi. Bola so'zlarni tushunib, esda qoldira boshlaydi. Bolaning eslab qolayotgan so'zining ma'nosini tushuntirib berishni so'rab katta yoshli kishilarga ko'pdan-ko'p g'alati savollar bilan murojaat qilishi shundan guvohlik beradi. Bolaning boshidan kechgan voqea, ko'rgan hodisasi haqida so'zlab bera olishi ham shuni ko'rsatadi. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolaning so'z-ma'no xotirasi hali mukammal emas, bu xotirani o'stirish uchun tarbiyachi doimo e'tibor va yo'l-yo'riq ko'rsatib turishi lozim.

Bog'cha yoshidagi bolalar xotirasining katta odamlar xotirasidan farqi, avvalo, ular oliy nerv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'likdir. Bir qator psixologlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy tekshirish ishlari natijalarining ko'rsatishicha, bog'cha yoshidagi bolalar oliy nerv faoliyati quyidagi maxsus xususiyatlarga ega[3].

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarning nerv sistemalari juda plastik xarakterga ega. Shuning uchun ham bu yoshdagi bolalarda vaqtli bog'lanishlar juda yengillik va tezlik bilan hosil bo'ladi. Bolalar nerv sistemasining bu xususiyati ularning esda olib qolish qobiliyatlariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Shu sababli ular ashula, ritmli she'r, qiziqarli va chuqur ta'sir etadigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qolaveradilar.

Ikkinchidan, bog'cha yoshidagi bolalar nerv sistemasi yengil qo'zg'aluvchan bo'lishi bilan birga yuzaga keladigan vaqtli bog'lanishlar juda beqaror bo'ladi, ya'ni mustahkam bo'lmaydi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar tomonidan idrok qilingan har turli narsa va hodisalar ularning xotiralarida uzoq saqlanib qolmaydi. Ular tez esga olishlari bilan birga tez unutib ham yuboradilar.

Uchinchidan, bog'cha yoshidagi bolalar nerv sistemasida qo'zg'alish jarayoniga nisbatan tormozlanish jarayoni ancha sust bo'lganligi tufayli ular o'xshash va birdaniga juda ko'p idrok qilingan narsalarning farqini yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ular birdaniga idrok qilgan juda ko'p narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar. Agar bog'cha yoshidagi boladan kechagi bayram kuni bo'lgan, ya'ni idrok qilgan narsalarini bir boshdan so'zlab berishni so'ralsa, u ma'noli va sistemali qilib so'zlab bera olmaydi. U gapni tasodifiy esga tushib qolgan narsalardan boshlab aytib ketaveradi, chunki birdaniga juda ko'p ko'rgan narsalarini bola tamom aralashtirib yuborgan. Boshqacha qilib aytganda, bolaning esda olib qolgan narsalarida hali sistema yo'q. Shuning uchun dastavval chuqur taassurot qoldirgan narsalardan boshlab gapiraveradi.

Xotira jarayoni bolaning bilish faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Biz maktabgacha yosh davrida bolalarning xotira jarayonlarini xususiyatlari va uni rivojlantirishning psixologik omillarini o'rganish maqsadida o'z tadqiqotlarimizni Farg'ona shahar XTB ga qarashli 33-son maktabgacha ta'lim muassasasida olib bordik. Bu yerda tarbiyalanayotgan 4,5,6 yoshli, har bir yosh guruhidah 15 nafardan bolalarning xotira jarayonlarining yosh xususiyatini o'rganish uchun E.F.Ribalko va L.A.Golovey tomonidan tahrir etilgan maktabgacha yosh davridagi bolalarni "Ixtiyorsiz eslab qolishini o'rganish" va "Itiyoriy eslab qolishini o'rganish" metodikalaridan foydalandik[2].

Bolada ixtiyorsiz esda olib qolish jarayonini yoshga bog'liqligini o'rganish uchun 4,5,6 yoshli har bir yosh guruxi 15 tadan iborat bo'lgan bolalarga hech qanday topshiriqsiz 10 ta tasvir ko'rsatiladi.

Bu ko'rsatkichlar bo'yicha umumiy ballar hisoblanib o'rtacha arifmetik qiymat quyidagi formula asosida hisoblanadi

$$K = \frac{Exi}{n} \times 100$$

Bunda, Exi –ballar yig'indisi, n- qatnashchilar soni.

Ixtiyorsiz esda olib qolish 4 yoshda 99 ballni, 5 yoshda 103 va 6 yoshda 113 ballni tashkil etgan bo'lsa, tushirib qoldirilgan tasvirlar miqdori 4 yoshda 51 ballni, 5 yoshda 47 ballni, 6 yoshda 37 ballni tashkil qiladi. Noto'g'ri aytilgan tasvirlar miqdori 4 yoshda 18 ballni, 5 yoshda 15 ballni, 6 yoshda 8 ballni tashkil qiladi. Olingan o'rtacha arifmetik qiymat 4 yoshda 5,4 ni, 5 yoshda 5,86 ni, 6 yoshda 7,0 ni tashki qiladi.

Tadqiqotimizning ikkinchi bosqichini birinchi eksperimentimizdan ikki hafta keyin o'tkazdik. Bunda bolaning ixtiyoriy xotirasini o'rganishdan iborat. Maqsadimiz olingan natijalar asosida bolaning ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolish jarayonini yoshga bog'liq holda rivojlanib borishi xususiyatini o'rganish va taqqoslashdan iborat.

Tadqiqotimizning ikkinchi bosqichida 1-bosqichida o'tkazilgan metodikaning ikkinchi qismi "ixtiyoriy esda olib qolishni o'rganish" metodikasidan foydalandik.

Bunda bolalarga quyidagicha ko'rsatma berdik: "Hozir sizlarga tasvir ko'rsataman, diqqat bilan qarab eslab qolishga harakat qil, keyin so'raganimda aytib berasan" degan topshiriq berdik.

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish


Tasvirlarni bir soniyadan ko'rsatildi, ko'rib bo'lgandan so'ng tasvirlanganlarni nomini aytish so'raldi.

Ixtiyoriy esda olib qolish bo'yicha natijalarni tahlil etdik. Bunda 4 yoshli bolalarning esda olib qolingani tasvirlar bo'yicha umumiy balli 101, 5 yoshda -103 ballni, 6 yoshda -120 ballni ko'rsatdi.

Noto'g'ri aytilgan tasvirlar bo'yicha ko'rsatkich 4 yoshda-14 ta, 5 yoshda-11 ta, 6 yoshda-13 tani tashkil etdi.

Bunda shunga e'tibor berish kerakki, bolaning 6 yoshda ixtiyoriy esda olib qolish bo'yicha ballari sezilarli darajada oshsada noto'g'ri aytilgan tasvirlar soni ham 5 yoshdagiga nisbatan 2 ta ortiqligini ko'rsatdi.

Bu tadqiqot natijasida 4 va 5 yoshli bolalarda ixtiyoriy esda olib qolish natijalarini grafik asosda ko'rinishi quyidagicha(1-rasm):



1-rasm. E.F.Ribalko va L.A.Goloveyning "Ixtiyoriy va ixtiyorsiz eslab qolish" metodikasi natijasi.

Bundan ko'rinib turibdiki, dastlab ixtiyorsiz esda olib qolish xarakterli bo'lsa, 4-5 yosh oralig'ida ixtiyorsiz va ixtiyoriy esda olib qolish orasidagi farq kamayadi, 5 yoshdan keyin farqlar ortib boradi va ixtiyoriy esda olib qolish rivojlanib boradi.

Shu bilan birga biz bolaning ixtiyorsiz va ixtiyoriy esda olib qolish bo'yicha natijalarni tahlil etib ko'rdik.

Bundan quyidagicha xulosaga kelish mumkin;

1. Bolaning xotira jarayonlari yoshga bog'liq holda rivojlanib boradi.
2. Dastlab ixtiyorsiz esda olib qolish xarakterli bo'lsa, 4-5 yosh oralig'ida ixtiyorsiz va ixtiyoriy esda olib qolish orasidagi farq kamayadi, 5 yoshdan keyin farqlar ortib boradi va ixtiyoriy esda olib qolish rivojlanib boradi.

ADABIYOTLAR:

1. Salaxidinova X.X. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Andijon. "OMADBEK PRINT NUMBER ONE" MCHJ -2025., 117 b.
2. Рыбалко Е. Ф. Возрастная и дифференциальная психология. – СПб.: Питер, 2001. – 224 с. – (Серия «Учебник нового века»).
3. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi, 2020.